



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI QUMQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING  
Q A R O R I**

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511, [qumhok@exat.uz](mailto:qumhok@exat.uz)

2022 - yil 9 - iyun

315-8-114-Q/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

**Tumanda tabiiy pichanzorlar va yaylovlardan foydalanish chora-tadbirlari  
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuni, “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi 12, 44-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagи “Yaylovlarda chorva mollarini o'tlatishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta'minlash va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

**Q A R O R   Q I L A M A N:**

**1. Quyidagilar:**

tuman hududida pichan o'rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o'tlatishning me'yorlari, muddatlari va ruxsatnoma bergenlik uchun undiriladigan to'lov miqdorlari 1-ilovaga;

chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g'amlashning me'yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rribosari (Q.Almatov), Qishloq xo'jaligi bo'limi (Y.Mengliqulov), tuman**

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘limi (B.Ismatov)lar bilan birgalikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qonunchilik talablari asosida amalga oshirilishini ta’minlasinlar.

3. Ushbu qaror “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rnbosari M.Qultayev va tuman hokimining o‘rnbosari Q.Almatov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R.B.Gapparov

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining  
2022 yil 9 iyundagi  
315-8-114-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tuman hududida tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini  
o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va o‘tlatishga ruxsatnoma bergenlik  
uchun undiriladigan to‘lov**

**MIQDORLARI**

T/r	Chorva mol turi	O‘lchov birligi (bosh)	O‘tlatishning me’yorlari (talab etiladigan maydon, ga)	Muddati	Ruxsatnoma berilganligi uchun undiriladigan to‘lov miqdori (bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib) % da
1.	6 oydan katta qo‘ylar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
2.	6 oygacha bo‘lgan yosh qo‘zilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
3.	6 oydan katta echkilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
4.	6 oygacha bo‘lgan uloqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
5.	Katta yoshdagи qoramollar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
6.	Ikki yoshgacha bo‘lgan buzoqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
7.	Katta yoshdagи otlar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
8.	Ikki yoshgacha bo‘lgan toydar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
9.	Katta yoshdagи eshaklar (uy hayvoni)	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
10.	Ikki yoshgacha bo‘lgan xo‘tiklar (uy hayvoni)	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining  
2022 yil 9 iyundagi  
315-8-114-Q/22-son qaroriga  
2-ilova

## **Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari**

<b>Foydalanish muddati</b>	<b>Pichan o‘rish miqdori hajmlari (kg, tonna, kubametr)</b>	<b>Ajratiladigan maydon, ga</b>	<b>Ruxsatnama berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdori</b>
Bir yil (mavsum davrida)	kg	1 ga	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 % miqdorida